

TALABA SHAXSINI KAMOLGA ETKAZISHDA FAOLIYATNI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna

SamDVMChBU dotsenti, PhD, nargizanarziyeva09@gmail.com

Musurmonov Nodirbek Axmad o‘g‘li, talaba,

Egamov Sharif Nizomiddin o‘g‘li, talaba

Annotatsiya. Mazkur maqolada talaba shaxsini har tomonlama kamolga yetkazishda faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Ta’lim jarayonida faoliyatning maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli va samarali tashkil etilishi talabaning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: talaba shaxsi, faoliyat, pedagogik jarayon, kompetensiya, mustaqil ta’lim, motivatsiya, tarbiya.

ПРАВИЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПОСОБСТВУЕТ РАЗВИТИЮ ЛИЧНОСТИ УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация. В данной статье подчеркивается педагогическая значимость правильной организации деятельности в комплексном развитии личности студента. Научно проанализировано, что целенаправленная, систематическая и эффективная организация деятельности в образовательном процессе способствует развитию интеллектуальных, духовно-нравственных и профессиональных компетенций студента.

Ключевые слова: личность студента, активность, педагогический процесс, компетентность, самостоятельное обучение, мотивация, образование.

CORRECT ORGANIZATION OF ACTIVITIES IN DEVELOPING THE STUDENT'S PERSONALITY

Abstract. This article highlights the pedagogical importance of the correct organization of activities in the comprehensive development of the student's personality. It is scientifically analyzed that the purposeful, systematic and effective organization of activities in the educational process contributes to the development of the student's intellectual, spiritual-moral and professional competencies.

Keywords: student personality, activity, pedagogical process, competence, independent learning, motivation, education.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida asosiy maqsad – raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Talaba shaxsining kamol topishi esa, avvalo, uning faoliyati qanday tashkil etilganiga

bog‘liq. Faoliyat – bu shaxsning rivojlanish mexanizmi bo‘lib, aynan faol ishtirok orqali bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Pedagogika fanida shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida irsiyat, muhit va tarbiya ko‘rsatiladi. Biroq shaxsning kamol topishida faoliyat hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Talaba shaxsi – bu ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanadigan, ma‘naviy, intellektual va kasbiy sifatlar majmuasiga ega bo‘lgan individdir. Shaxs kamoloti quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- Intellektual rivojlanish
- Ma‘naviy-axloqiy shakllanish
- Ijtimoiy faollik
- Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi

Bu jarayon samarali tashkil etilgan o‘quv va tarbiyaviy faoliyat orqali amalga oshiriladi.

Ma‘lumki, shaxs layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o‘stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o‘tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta‘sir etadigan omillar bir qancha bo‘lsa ham, lekin OTMda ustoz rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, tarbiya ta‘sirida turli fazilatlar o‘zlashtiriladi va bilim, ma‘lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklarni ham o‘zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko‘rlar, gunglar ham o‘qitilib, sog‘lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta‘sirini ham yo‘qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To‘rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o‘ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta.

Talaba o‘qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo‘lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. O‘qituvchi-tarbiyachi o‘z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo‘lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo‘lgan oilalarga yordam berishi lozim. Tarbiyachi uchun bola bo‘sh vaqtini kimlar bilan va nimalar bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tkazayotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o‘z holiga tashlab qo‘yilgan talaba ko‘chaning salbiy ta‘siriga berilib ketishi mumkin.

Faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Maqsadlilik va rejalilik

Har bir o‘quv faoliyati aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Rejalashtirilgan faoliyat talabaning vaqt va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

2. Faollik va mustaqillik

Talaba passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy ishlar talabani mustaqilligini oshiradi.

3. Individual yondashuv

Har bir talabani qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha bo'lganligi sababli, faoliyatni tashkil etishda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Integratsiya va amaliy yo'naltirilganlik

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash talabani kasbiy shakllanishiga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlar, treninglar va stajirovkalar shaxs kamolotini jadallashtiradi.

O'quv faoliyatini samarali tashkil etish yo'llari

- Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish
- Mustaqil ta'lim va tadqiqot ishlarini rivojlantirish
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash
- Talabalarning ijodiy loyihalarini qo'llab-quvvatlash
- Baholashning shaffof va rag'batlantiruvchi tizimini joriy etish

Bunday yondashuv talabalarda mas'uliyat, tashabbuskorlik va ijodkorlik sifatlarini rivojlantiradi.

Talaba shaxsining kamoloti faqat bilim bilan cheklanmaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik ham muhim ahamiyatga ega. Guruhiy tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, ijtimoiy loyihalar bu borada samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Talaba shaxsini kamolga yetkazishda faoliyatni to'g'ri tashkil etish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Maqsadli, tizimli va samarali tashkil etilgan o'quv hamda tarbiyaviy jarayon talabani intellektual, ma'naviy va kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shuning uchun zamonaviy oliy ta'lim tizimida faoliyatga asoslangan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Demak, shaxs ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan hamohang o'zgarib boraverar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science...(PhD) diss. *Samarkand: SamDU*.
2. Alimova, S. G., Nargiza, N. N., Ikromjonovna, J. S., Lola, R. D., Isabayeva, D. K., & Sherali, Q. U. (2025). The Role of Educational Management in Improving the Quality of Teaching and Learning. *Cadernos de educação, tecnologia e sociedade Ученые: University of Minho*, 18, 187-194.
3. Narzieva, N. N. (2024). Development of research competencies in the conditions of integrated education in students on the base of a competent approach. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(2), 16-21.

4. Khusenova, N. I., Fayzieva, F. N., Narzieva, N. N., & Rajabova, G. R. (2019). THE CONTENT OF TEACHING LISTENING IN ENGLISH AT ELEMENTARY SCHOOL. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 45-47).
5. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.
6. Нарзиева, Н. (2017). Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 156-158).
7. Narzieva, N. N. (2017). Development of Education and Research Activity Profile Class Students on the Basis of Integrative and Personal Approach. *www.auris-verlag.de*.
8. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCES OF VETERINARY SPECIALISTS IN THE MODERNIZATION OF VETERINARY EDUCATION. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(3).
9. Narzieva, N. N. (2023). OLIY TA'LIM O 'QITUVCHILARINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINI INGLIZ TILI O 'QITUVCHILARI MISOLIDA TASHKIL QILISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. 2016 No. 6 (100/1), 100(66), 5-10.
10. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF HISTORY TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (5), 171-173.
11. Ulugmurodova, G. F., Nurmanova, N. N. Z., & Musayeva, N. A. (2020). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR ORQALI ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH (1-SINF MISOLIDA). *Интернаука*, (29), 55-56.
12. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).
13. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.
14. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Х. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021*, 1, 528.